

**MULTIMODAL METODLAR: VIDEO, AUDIO, ANIMATSIYA VA MATN  
ASOSIDA TILNI O'RGATISH**

**Jamolova Zebiniso**

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti,  
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tilini o'rghanishda multimodal metodlardan — video, audio, animatsiya va matnlardan birgalikda foydalanishning didaktik asoslari, afzalliklari hamda amaliy natijalari tahlil qilinadi. Multimodal yondashuv o'quvchilarning eshitish, ko'rish, o'qish, sezish va tushunish kompetensiyalarini bir vaqtning o'zida faollashtiradi. Tadqiqotda multimodal darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligi solishtirilib, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Multimodal yondashuv, video, audio, animatsiya, vizual vositalar, til ko'nikmalar, integratsiyalashgan o'qitish.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi til o'rgatish metodikasida yangi yondashuvlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ulardan biri — multimodal yondashuvdir. Bu metod o'quvchilarni faqat bitta uslubga emas, balki ko'p kanalli axborot (matn, rasm, tovush, harakat) orqali bilim olishga yo'naltiradi.

Til o'rghanishda o'quvchilar turlicha qabul qiladi: ba'zilar ko'rib eslab qoladi (vizual), boshqalar eshitib (auditiv), yana boshqalar harakat va amaliy mashqlar orqali (kinestetik). Multimodal metod bu farqlarni hisobga olib, o'quvchiga mos o'qitish imkonini yaratadi.

Masalan, yangi so'zlarni video animatsiya orqali tushuntirish, dialoglarni audio shaklida eshittirish, matnli subtitrlar yordamida o'qishni faollashtirish o'quvchilarni darsga jalb qiladi va til ko'nikmalarini integratsiyalab rivojlantiradi.

Tadqiqot quyidagi metodik asoslar doirasida olib borildi:

- Eksperimental usul: 2 ta 10-sinf o'quvchilari ishtirotida tajriba o'tkazildi (nazorat guruhi — an'anaviy darslar, tajriba guruhi — multimodal yondashuv asosida).
- Dars ssenariysi: 6 haftalik material – har bir hafta matn, video, audio va animatsion kontentni o'z ichiga oldi.
- Baholash mezonlari: eshitish, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalaridagi yutuqlar, ishtirot faolligi, materialni yodda saqlash ko'rsatkichi.
- So'rovnoma: o'quvchilarning motivatsiyasi, darsga bo'lgan qiziqishi, multimodal kontengta bo'lgan munosabati o'rGANildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

Ko'nikma turi	Nazorat (an'anaviy)	guruhi	Tajriba (multimodal)	guruhi	F arq
Eshitib tushunish	58/100		86/100		+ 28

Ko'nikma turi	Nazorat (an'anaviy)	guruhi	Tajriba (multimodal)	guruhi	F arq
Matn bilan ishlash	64/100		88/100		+ 24
Gapirish faolligi	55/100		82/100		+ 27
So'z boyligi yodda qolishi	60/100		89/100		+ 29
Darsga qiziqish	O'rtacha		Yuqori		—

Izoh: Tajriba guruhi multimodal vositalar bilan o'qitilgani sababli nafaqat til ko'nikmalari, balki motivatsiya va darsdagi ishtirok ham ancha yuqori bo'lgan.

Multimodal metodlarning o'qitishdagi afzalliklari, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri bilan chambarchas bog'liq. Bunday yondashuv bir vaqtning o'zida o'quvchining eshitish, ko'rish, o'qish va harakat orqali o'rganish imkonini beradi. Bu esa har bir o'quvchining individual qabul qilish uslubini hisobga olgan holda ta'limni moslashtirishga yordam beradi.

Multimodal vositalar – xususan, video va animatsiyalar – til o'rganishda kontekstni aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. O'quvchilar dialogda ishtirok etayotgan shaxslarning yuz ifodasi, tana harakati, ovoz ohangi va muhitni kuzatish orqali tilning emotsiyal va madaniy jihatlarini ham chuqurroq o'zlashtira oladi. Bu esa oddiy grammatik bilimlardan ko'ra chuqurroq va amaliyoq til kompetensiyasini shakllantiradi.

Matn bilan birlashtirilgan audio va video materiallar o'quvchilarning diqqatini ushlab turishda muhim rol o'yndaydi. Bu usul ayniqsa yosh o'rganuvchilar va e'tiborni uzoq saqlab turolmaydigan o'quvchilar uchun samarali hisoblanadi. Vizual harakatlar, tovushlar va ranglarning uyg'unligi o'quvchini dars jarayoniga faol jalb qiladi.

Shuningdek, multimodal metodlar yordamida o'rgatuvchi nafaqat tilni o'rgatadi, balki o'quvchining tanqidiy fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini, madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, bir xil holatdagi ikki xil millat vakillarining muloqot uslublarini solishtirish orqali o'quvchi nafaqat lug'at boyligini, balki madaniy tafovutlarni ham anglaydi.

Shu bilan birga, multimodal metodlarni joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, darslarda foydalaniladigan texnologik vositalarning yetishmasligi, ba'zi hududlarda internet tezligining pastligi yoki o'qituvchilarning multimodal darsni loyihalash bo'yicha yetarli malakaga ega emasligi. Biroq bu muammolarni darslarni oldindan rejalashtirish, mavjud bepul va qulay vositalardan (masalan, YouTube, Canva, Padlet) foydalanish hamda o'qituvchilarni maxsus treninglar orqali tayyorlash yo'li bilan bartaraf etish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, multimodal metodlar — zamonaviy til o'qitish metodologiyasining ajralmas qismi bo'lib, ular tilni o'rganishni tabiiy, hayotiy va

ko‘ngilochar jarayonga aylantiradi. Bu esa til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirib, o‘quvchilarni faol va samarali ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Multimodal metodlar til o‘rganish jarayonida:

- O‘quvchilarning barcha sezgi kanallarini ishga soladi;
- O‘qish, eshitish, yozish va gapishtishni birgalikda rivojlantiradi;
- Yodlash emas, kontekstual tushunishga asoslangan o‘rganishni rag‘batlantiradi;
- Qiziqarli va interaktiv ta’lim muhiti yaratadi;
- Raqamli vositalarni samarali integratsiyalash imkonini beradi.

Shu sababli multimodal metodlarni o‘quv dasturlariga joriy etish, o‘qituvchilarni metodik jihatdan tayyorlash va texnologik infratuzilmani mustahkamlash ta’lim sifatini sezilarli oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning*. Cambridge University Press.
2. Paivio, A. (1990). *Mental Representations: A Dual Coding Approach*. Oxford University Press.
3. Richards, J. C., & Renandya, W. A. (2002). *Methodology in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Nafasova, D. (2023). Multimodal yondashuv asosida chet tilini o‘rgatish samaradorligi. *Til va metodika*, №1.
5. Saidova, M. (2022). Vizual va audio materiallar asosida o‘quv motivatsiyasini oshirish. *Pedagogik innovatsiyalar jurnali*, №4.